

ISSN 2181-922X

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

O'ZBEKISTON

2025 Vol. 3

tsuull.uz
uzlc.tsuull.uz

ISSN 2181-922X

O'ZBEKISTON:

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN:

LANGUAGE AND CULTURE

2025 Vol. 3

tsuull.uz

uzlc.tsuull.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov
Bosh muharrir o'rinbosari: Nozliya Normurodova
Mas'ul kotib: Ozoda Tojiboyeva

Tahrir kengashi

Hamidulla Dadaboyev, Mustafo Bafoyev, Samixon Ashirboyev, Shodmon Vohidov (Tojikiston), Qozoqboy Yo'ldoshev, Farxod Maqsudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Almaz Ulvi (Ozarbayjon), Shamsiddin Kamoliddin, Roza Niyozmetova, Aftondil Erkinov, Uzoq Jo'raqulov, Sulton Normamatov, Dilnavoz Yusupova, Dilorom Ashurova, Odinaxon Jamoldinova, Ziyoda Teshaboyeva.

Tahrir hay'ati

Nazef Shahrani (AQSH)	Abdulaziz Mansur (O'zbekiston)
Elizabethta Ragagnin (Italiya)	Timur Xo'jao'g'li (AQSH)
Ahmadali Asqarov (O'zbekiston)	Tanju Seyhan (Turkiya)
Isa Habibbeyli (Ozarbayjon)	Xisao Komatsu (Yaponiya)
Akmal Nur (O'zbekiston)	Alizoda Saidumar (Tojikiston)
Akrom Habibullayev (AQSH)	Nikolas Kantovas (Buyuk Britaniya)
Bahtiyar Aslan (Turkiya)	Akmal Saidov (O'zbekiston)
Emek Ushenmez (Turkiya)	Mark Toutant (Fransiya)

“O'zbekiston: til va madaniyat” jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.tsuull.uz

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Editor-in-Chief: Shuhrat Sirojiddinov
Deputy Editor in Chief: Nozliya Normurodova
Executive secretary: Ozoda Tajibaeva

Editorial board

Hamidulla Dadaboev, Mustafo Bafoev, Samikhan Ashirboev, Shodmon Vohidov (Tajikistan), Qozoqboy Yuldashev, Farhad Maksudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Almaz Ülvi (Azerbaijan), Shamsiddin Kamoliddin, Roza Niyozmetova, Aftondil Erkinov, Uzoq Jurakulov, Sulton Normamatov, Dilnavoz Yusupova, Dilorom Ashurova, Odinakhan Jamoldinova, Ziyoda Teshabaeva.

Editorial Committee

Nazif Shahrani (USA)	Abdulaziz Mansur (Uzbekistan)
Elisabetta Ragagnin (Italy)	Timur Kozhaoglu (USA)
Ahmadali Asqarov (Uzbekistan)	Tanju Seyhan (Turkey)
Isa Habibbeyli (Azerbaijan)	Hisao Komatsu (Japan)
Akmal Nur (Uzbekistan)	Alizoda Saidumar (Tajikistan)
Akrom Habibullaev (USA)	Nicholas Kontovas (Great Britain)
Bahtiyar Aslan (Turkey)	Akmal Saidov (Uzbekistan)
Emek Üşenmez (Turkey)	Marc Toutant (France)

“Uzbekistan: Language and Culture” is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The journal is published four times a year.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.tsuull.uz

MUNDARIJA

Lingvistika

Ashirboyev S., Aymag'ambet J., Sayfullayev B.

Muhammad Karimxojaning "Turkcha qoida" asarida fe'l formalarining izohlanishi.....6

Kuniyuki Noto

Boshlang'ich darajadagi grammatik qoliplarda yaponcha "iyi" va o'zbekcha "yaxshi" ning qo'llanilishi.....18

Ma'rufjon Dustmurodov

Qari Ćor Tigin bitigidagi yoyi: $t(a)b\gamma(a)\check{c} q(a)n\ yoyl(a)d\ddot{i}$ satri xususida30

Bobir Ashurov

Sud-ekspertiza lingvistikasida uslubiyat va uslublar.....44

Lee Ji-eun, Dilnoza Kalanova

O'zbek tilidagi harflarning koreys yozuvida ifodalanishi.....69

Adabiyotshunoslik

Alimuhtar Muhtarov

Nizami Gencevî ve onun "Mahzanü'l-esrâr" Mesnevisinin İncelenmesi, Konusu ve İdeasi.....81

Shoiraxon Xo'jayeva

Turkiy adiblar ijodida "dunyo" konsepti va uning ma'rifiy talqini95

Tarix. Manbashunoslik

Ziyovutdin Ilhomov

O'zbekistonda tarix fani: XX asr boshlarida jadidlar va ularning tarixiy-ilmiy qarashlari.....108

San'at

Элина Молдокулова

Сохранение узбекской культурной идентичности через язык и традиционный костюм в эпоху глобализации121

CONTENT

Linguistics

Ashirboyev S., Aymag'ambet J., Sayfullayev B.

The Explanation of verb forms in Muhammad Karimhodja's
"Turkish Rule"6

Kuniyuki Noto

The use of Japanese "iyi" and Uzbek "yaxshi" in Beginner-Level
Grammar Patterns18

Ma'rufjon Dustmurodov

On the line "yoyi: *t(a)by(a)č q(a)n yoyl(a)di*" in the inscription
of "Qari Čor Tigin"30

Bobir Ashurov

Methodologies and Methods in Forensic Linguistics.....44

Lee Ji-eun, Dilnoza Kalanova

A Study of Uzbek Letters on the Korean Transcription System.....69

Literature

Almukhtar Mukhtarov

A Study of Nizami Ganjavi and his Methnewi 'Makhzan Al-asrar':
Analysis, Theme and Idea81

Shoirakhon Khujaeva

The Concept of "world" in the works of Turkic authors and its
Enlightenment Interpretation.....95

History. Source studies

Ziyovutdin Ilkhamov

The aspect of History in Uzbekistan: Jadids and their historical-
scientific perspectives in the early XXth century.....108

Art

Elina Moldokulova

Preserving Uzbek Cultural Identity Through Language and
Traditional Costume in the Globalization Era121

Turkiy adiblar ijodida “dunyo” konsepti va uning ma’rifiy talqini

Shoiraxon Xo’jayeva¹

Abstrakt

Mazkur maqolada tasavvufiy va ma’rifiy tafakkurda “dunyo” konsepsiyasining mazmun-mohiyati Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg’oniy va Nosiruddin Rabg’uziy ijodi misolida tahlil etilgan. Tadqiqotda mazkur adiblar asarlarida “dunyo” obrazi nafaqat axloqiy tanqid yoki zohiriy inkor obyektini sifatida, balki insonning ruhiy kamoloti va ilohiy haqiqatga yetaklovchi sinov maydoni tarzida talqin qilinishi ochib beriladi. Maqolada, shuningdek, Yassaviy hikmatlaridagi diniy-axloqiy ohang, Boqirg’oniy asarlaridagi xalqona-didaktik ruh va Rabg’uziy asarlaridagi ma’rifiy tafakkur o’zaro qiyosiy tahlil qilinib, ularning “dunyo” konsepsiyasini shakllantirishdagi mushtaraklik va individual uslubiy jihatlari aniqlanadi. Tadqiqot natijalari tasavvufiy adabiyotda “dunyo” ramzining badiiy, falsafiy va estetik qamrovi o’zaro uyg’unlikda rivoj topganini ko’rsatadi.

Kalit so’zlar: *tasavvuf, irfon, hikmat, “dunyo” obrazi, ramz, ma’naviy kamolot, didaktika, estetik talqin, ma’rifat, badiiy tafakkur.*

Kirish

Insoniyat tafakkuri tarixida “dunyo” tushunchasi eng ko’p talqin etilgan, falsafiy, diniy va badiiy mushohadalarda markaziy o’rin tutgan mavzulardan biridir. U nafaqat moddiy mavjudlikni, balki inson ruhiyatining sinov maydonini, ma’naviy kamolot va halokat o’rtasidagi ziddiyatli jarayonni ifodalovchi murakkab falsafiy konsepsiyadir. Sharq tafakkurida, xususan, tasavvufiy-ma’rifiy adabiyotda “dunyo” obrazi o’tkinchilik, beqarorlik, ilohiy haqiqatdan chalg’ituvchi parda timsolida talqin etilib, insonni nafs havaslaridan forig’ bo’lish, ruhiy poklanish, Haqqa yaqinlashishga undovchi asosiy g’oyaviy yo’nalishlardan biri sifatida shakllandi.

Mumtoz adabiyotimizda “dunyo”ga munosabat ikki qutbda

¹ Xo’jayeva Shoiraxon Baxtiyor qizi – filologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD), doktorant, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o’zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-mail: shoiraxon24@gmail.com

ORCID ID: 0009-0007-6607-276X

Iqtibos uchun: Xo’jayeva, Sh. B. 2025. “Turkiy adiblar ijodida “dunyo” konsepti va uning ma’rifiy talqini”. *O’zbekiston: til va madaniyat* 3: 95 – 107.

namoyon bo'ladi: bir tomondan, u insonni Haqdan uzoqlashtiruvchi vasvasa manbai, ikkinchi tomondan esa, ma'naviy kamolot sari eltuvchi sinov maydoni sifatida qaraladi. Ana shu ikki yo'nalish o'rtasidagi muvozanat tasavvufiy-ma'rifiy tafakkurning mohiyatini belgilaydi. Bu jihatdan Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg'oniy va Nosiruddin Rabg'uziy ijodi turkiy adabiyotda "dunyo" konsepsiyasining shakllanishida muhim bosqichni tashkil etadi.

Ahmad Yassaviy hikmatlarida "dunyo" insonni Haqdan chalg'ituvchi, ilohiy ma'rifatdan to'suvchi parda sifatida ifodalanadi. U hikmatlari orqali o'quvchini dunyo vasvasalaridan yuz o'girib, ruhiy poklanishga chorlaydi. Sulaymon Boqirg'oniy esa Yassaviy an'alarini davom ettirib, ularni xalqona-didaktik ruh bilan boyitgan. Uning asarlarida dunyo mavzusi pand-nasihat ohangi, ibratli misollar va xalq tili orqali yanada ta'sirchan ifodalanadi. Nosiruddin Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uziy" asarida esa dunyo ma'rifiy-didaktik ma'noda talqin qilingan.

Mazkur maqolada ana shu uch mutafakkir ijodida "dunyo" konsepsiyasining tasavvufiy va ma'rifiy talqini, ularning qarashlaridagi mushtaraklik hamda individual badiiy-uslubiy yondashuvlar ilmiy tahlil etiladi. Tadqiqot davomida "dunyo" obrazi ramzlar tizimi (ko'prik, karvonsaroy, zindon, o'limtik, bevafo ayol va boshqalar) orqali qanday badiiy-falsafiy ma'no kasb etgani, shuningdek, bu obrazning tasavvufiy estetikadagi markaziy o'rni ochib beriladi. Shu tariqa, maqola "dunyo" konsepsiyasining Yassaviy, Boqirg'oniy va Rabg'uziy ijodida qanday shakllanib, tasavvufiy tafakkur bilan ma'rifiy g'oyalari o'rtasida qanday ko'prik vazifasini bajarganini yoritishga qaratilgan.

Yassaviy ijodida dunyo mavzusi

Tasavvuf adabiyotining poydevorini qo'ygan mutasavvif shoirlar orasida Ahmad Yassaviyning o'rni beqiyosdir. Uning hikmatlari nafaqat diniy-irfoniy mazmunga, balki xalqning ruhiy olamiga, milliy tafakkuriga singib ketgan badiiy-falsafiy hodisadir. Yassaviy o'z hikmatlari orqali ilohiy haqiqatlarni xalq tili va xalq tasavvuriga yaqin ramzlar, timsollar, obrazlar orqali ifodalab, murakkab tasavvufiy g'oyalarni ommaga tushunarli ruhda yetkazgan.

Yassaviy ijodining o'ziga xosligi shundaki, u nafaqat tasavvufiy g'oyalarni nazariy tarzda bayon etadi, balki ularni inson qalbi, hayoti va amaliy poklanish yo'li bilan bog'lab tasvirlaydi. Muallif, so'fiylikda muhim o'rin tutuvchi piri murshid maqomida, hikmat

aytishdan ko'zlagan asosiy maqsadini insonni dunyo lazzatlari, nafs vasvasalari va vaqtinchalik havaslardan voz kechishga, ma'naviy poklanish va Haqqa yaqinlashishga da'vat etish deb biladi. Shu bois Yassaviy hikmatlari ortiqcha dabdaba va jimjimadorlikdan xoli, bilaks, oddiylik va samimiyatga yo'g'rilgan jumlar, o'quvchi esida qoladigan yorqin obrazlar, kitobxon qalbiga chuqur kirib boradigan pand-nasihatlar, ayrim o'rinlarda keluvchi keskin tanbeh, chaqiruv va hukmlar adib ijodi uchun xarakterlidir.

Yassaviy hikmatlari Qur'oni karim va hadisi sharifga asoslanadi. Xususan, quyidagi hikmat ham "Dunyo o'limtikdir, uning talabgori itlardir" [Бухорий 1997, 113] hadisining poetik ifodasidir:

*Ishq o'tig'a kuygonlarni rangi o'char,
Uqbo sori jadal qilib mundin ko'char,
Munda bo'lg'on girihlarni anda ochar,
Rasul: "Dunyo **jifa**" dedi, qo'y dum mano* [Yassaviy 2022, 63].

Tasavvufiy tafakkurda nafsni zabt etish va ruhiy poklanishning asosiy vositasi sifatida ishq konsepsiyasi alohida o'rin tutadi. "Ishq – kamolot kaliti va iksiri a'zam, ishq mis vujudimizni oltinga aylantiruvchi kimyo. Ishq odamni hayvonlikdan xalos etadi, odamzod naslini badbaxtlik, falokatlardan qutqaradi, barcha illatlarimizning davosi ham shu" [Комилов 2009, 26]. Aynan shu nuqtayi nazardan qaralganda, Ahmad Yassaviy ijodining o'ziga xos xususiyatlaridan biri ham Ishq masalasiga chuqur falsafiy va axloqiy yondashuvdadir:

*Orif, oshiq o'z jonini o'tqa solmas,
Bedardlarga ishq chaqmoqin boqib chaqmas,
Dunyo kelib **jilva** qilsa, nazar solmas,
Ishqsiz odam bahoyim¹ din batar, do'stlar* [Yassaviy 2022, 87].

Hikmatda chaqmoq ramzi orqali ishqqa, o't ramzi orqali esa ham dunyoviy havaslarga, ham do'zax azobiga ishora qilinmoqda. Qalbida ishq chaqmog'i chaqqan, dili Haq ishq bilan, Haqqa yetishmoq dardi bilan yashaydigan chin orif-u oshiq o'zini dunyoviy tashvishlar bilan mashg'ul qilmaydi. Zero, uning yashashdan maqsadi dunyoviy ne'matlarga yetishish emas, aksincha, nafsni yengish va dunyodan kechish orqali Haq rizosini topishdir. Dunyoviy istaklar ketidan quvgan kimsalar esa ham bu dunyoda joni azob (o't) da, ham Haq yo'lidan toygani uchun oxirat azobi (do'zax o'ti)ga mahkum. Mazkur hikmatning yana bir xarakterli jihati unda dunyo

¹ Bahoyim – to'rt oyoqli tilsiz hayvonlar.

obrazi Yusuf Xos Hojib va Ahmad Yugnakiy ijodidagi kabi ayol ramzi orqali aks ettirilganidir. Yassaviy salafлари kabi Qur'oni karim va hadisi sharif mazmuniga tayangan holda, odamlarni dunyo jilvalari aslida inson uchun bir fitna ekanligidan ogoh etib, ularni dunyoga aldanmaslikka, hatto uning "jilvalariga boqmaslikka" chaqiradi.

Quyidagi hikmatda ham an'anaviy ramz – karvonsaroy obrazi orqali dunyoga ko'ngil bermaslik g'oyasi ilgari surilmoqda:

*Ayo g'ofil, ko'zung ochgil, ketibdur jumla yor emdi,
Jahon ko'hna **rabotidur**, ki bilsang roh guzor emdi*

[Yassaviy 2022, 364].

Ahmad Yassaviy hikmatlarida dunyo obrazining ramziy talqini an'anaviy tasavvufiy timsollar – "ayol", "karvonsaroy" kabi obrazlar bilan birga, muallifning badiiy-estetik tafakkuriga xos yangicha ramzlar orqali ham ifodalanadi. Xususan, quyidagi hikmatda dunyo "do'kon" obrazi vositasida tasvirlanadi. Unda ba'zi nodon insonlarning dunyodan oxirat uchun muhim bo'lgan ne'matlarni savob amallar evaziga "sotib olish" o'rniga, uni shaytoniy nafs istaklariga aldanib o'yin-kulgi manbayiga aylantirishlari tanqid ostiga olinadi. Natijada bunday shaxslar oxiratga ma'naviy jihatdan bo'sh – "quruq qo'l" bilan boradilar:

*Ba'zi nodon kirdi bozor oldi do'kon,
Hamroh bo'ldi ul nodong'a anda shayton,
To qurug'lig' o'lturdilar shod-u xandon,
O'shal **do'kon** dunyo erur, bildingizmu?* [Yassaviy 2022, 334].

Ahmad Yassaviy hikmatlarida dunyodan ko'ngil uzish tushunchasi ham "**dunyodan ko'ngil sovutish**" ("*Dunyo harom, andin ko'ngul sovutmading*" 72), "**dunyoni tepish**" ("*Dunyo teubub, Haqni sevgan tobtı murod*" 78), "**dunyoni qo'yish**" ("*Duo qilg'il, mo'min qullar dunyo qo'ysun, / Dunyo qo'yg'an oxiratni topar, do'stlar*" 85), "**dunyoni sotish**" ("*Bu dunyoni puchak pulg'a sotar, do'stlar*" 99) "**dunyoni tashlash**" ("*Dunyo toshlab, oxiratni savdo qildi*" 124), "**dunyo uqbin taloq qilish**" ("*Banda bo'lsang, dunyo uqbin qilg'il taloq*" 281), "**dunyoga ko'z solmaslik**" ("*Haqqa boqar, dunyo sori solmas ko'zin*" 278), "**dunyodan qochish**" ("*Qul Xoja Ahmad, dunyo ko'rsang, qocho ko'rgil*" 316), "**dunyodan kechish**" ("*Ahlu iyol dushman sango, kecho ko'rgil*" 316), "**dunyoni tashlab ketish**" ("*Oxiratlig' dunyo toshlab ketmadimu?*" 326), "**dunyoga boqmaslik**" ("*Ko'z ochibon boqma dunyo haromina*" 330), "**dunyo mehrini qo'yish**" ("*Dunyo mehrin qo'ymag'on, tongla rasvo bo'lunur*" 359) kabi kinoyaviy ifodalar bilan obrazli tarzda aks ettiriladi.

Yassaviy hikmatlari nafaqat o‘z davrida, balki undan keyingi davrlarda ham kuchli ta’sirga ega bo‘lib, hikmatnavislikni mustahkam adabiy-falsafiy an’anaga aylantirdi. Bu an’ananing yirik davomchilaridan biri – **Sulaymon Boqirg‘oniy** (Xoja Sulaymon, Hakim ota) bo‘lib, u Yassaviy maktabining eng yaqin va sadoqatli izdoshi sifatida tanilgan. Sulaymon Boqirg‘oniy nafaqat Yassaviy silsilasining ma’naviy merosini davom ettirdi, balki uni xalq ruhiyatiga yanada yaqinlashtirdi. Uning “Hikmatlar”i xalq og‘zaki ijodi bilan tasavvufiy tafakkurni sintez qilgan holda, hikmatnavislikning yangi bosqichini boshlab berdi. Shuningdek, u dunyo obrazining Yassaviy tomonidan asos solingan ramziy va tanqidiy-estetik talqinini o‘z ijodida davom ettirdi. Masalan, Yassaviyda:

*Beshak biling, bu dunyo barcha xalqdan o‘taro,
Inonmagil molingga, bir kun qo‘ldin ketaro* [Yassaviy 2022, 200], deya ta’kidlangan fikr, Boqirg‘oniyda yana ham xalqona, sodda va ommaga yaqin ohangda o‘z ifodasini topadi:

*Inonmag‘il bu besh kunlik tiriklik, mol-u ayvonga,
Na uy qolg‘ay, na el qolg‘ay, na mol qolg‘ay, na jon emdi*

[Boqirg‘oniy 2022, 436].

Yassaviy ijodida “dunyo”ga munosabat ko‘proq diniy-axloqiy qarashlar bilan bog‘liq bo‘lib, keskin tanqidiy ohangda ifodalansa, Boqirg‘oniyda bu ohang xalqona didaktik ruh bilan yumshatiladi:

*Azizlar ushbu xasis dunyo uchun,
Xor qilur kandu aziz o‘zlorini,
Minnatlik **jiyfa** – harom luqma uchun,
Sarg‘artib za‘farondek yuzlorini* [Boqirg‘oniy 2022, 447].

Hikmatda “xasis dunyo” ifodasi orqali dunyo nafsiy xudbinlik, ochko‘zlik va yolg‘on qiymatlarga asoslangan makon sifatida talqin qilinadi. Unda dunyoning aziz insonlarni xor qiluvchi, obro’sizlantiruvchi tuban qiyofasi fosh etiladi. She’rda tilga olingan “harom luqma” dunyoning hadisiy ramzidir. Hikmatdan chiqadigan umumiy xulosa shuki, inson – aziz-u mukarram zot. U olamga ulug‘ maqsad bilan kelgan. Ammo u dunyoning o‘tkinchi va aldamchi ne’matlari qarshisida asl maqsadini unutib, ana shu dunyoviy ne’matlarga qul bo‘lib qolar ekan, dunyo unday kimsani azizlikdan xorlikka, mukarramlilikdan tubanlikka qulatadi.

Sulaymon Boqirg‘oniy hikmatlarida dunyo obrazining majoziy talqini

Sulaymon Boqirg‘oniy hikmatlarida dunyo obrazining ramziy

talqini ko'pincha insonning bu dunyodagi borligi va maqsadi haqidagi tafakkur bilan uzviy bog'liq holda yoritiladi. Shoirga ko'ra, inson dunyoga bejiz kelmagan: uning bu olamga tushirilishida chuqur ma'naviy sabab – ibtidoiy xatoni anglab, tavba qilish zarurati mujassam. Ana shu ma'naviy vazifa – tavba va istig'for holatida yashash, o'z nafsini tiyib, Haq rizosiga intilish kishi uchun haqiqiy kamolot yo'lini belgilaydi. Quyidagi bayt mazkur tasavvufiy-falsafiy qarashni sodda va xalqona ohangda ifodalaydi:

*Xalq ko'rsang, qilg'il salom, olgil alik,
Ne kerak takabburlik sanga, manlik,
Tavbag'a kelturgan ul Ezid molik,
Dunyoning aslini bildim emdi [Boqirg'oniy 2022, 435].*

Umuman olganda, Sulaymon Boqirg'oniy ijodida bandalikning asl mohiyati – bu dunyo havaslaridan voz kechib, tavba orqali Haq rizosini topishdadir. U tasavvufiy tafakkurga xos tarzda insonning eng oliy vazifasini gunohlarini anglab, chin qalbdan tavba qilish va Allohga yuz tutishda ko'radi. Ushbu g'oya Boqirg'oniy hikmatlarining markaziy mavzularidan biri sifatida tez-tez takrorlanadi. Xususan, quyidagi hikmatda shoir “dunyo” obrazini zindon ramzi orqali ifodalab, undan qutulish yo'lini chin tavba, qalban yollab va Haqqa yuz burishda deb ko'rsatadi:

*Qul Sulaymon, chin emdi tavba qilg'il,
Yalborib, yaqo tutub, Haqqa yongil,
Boqiy debon bu dunyog'a ishonmag'il,
Foniy turur ushbu dunyo — **zindon** emdi*

[Boqirg'oniy 2022, 455].

Hikmatda Boqirg'oniy bir tomondan insonni Haq oldidagi zaif holati va bandalik maqomini eslatadi, ikkinchi tomondan esa uni o'z nafsini tanqid qilish, tavba va iltijoga undash orqali ma'naviy uyg'onishga chaqiradi. Dunyoga ishonmaslikka da'vat tasavvufiy tafakkurga xos tarzda, bu hayotning foniy mohiyatini anglash, undagi ne'matlarga bog'lanib qolmaslik zaruratini bildiradi. “Zindon” ramzi orqali esa dunyoviy hayotning bandani ruhiy halokatga olib boruvchi xavfli jihatlariga e'tibor qaratiladi. Shunday qilib, ushbu hikmatda bandaning najoti va haqiqiy erkinlikka chiqish yo'li – dunyo aldovidan hushyor bo'lish, nafsni yengish va Haqqa tavba orqali yaqinlashish deb ko'rsatiladi.

Shu bilan birga, Sulaymon Boqirg'oniy Yassaviyga xos ruhda olam va odam yaralishining mohiyatini “Ilohiy ishq” konsepsiyasi orqali izohlaydi. Shoir nazarida, mavjudotning bor bo'lishi, insonning

bu dunyodagi hayoti, oxiratdagi najot umidi – barchasi Allohning cheksiz ishq va rahmatiga bog’liq. Quyidagi hikmatda ushbu g’oya ramziy-estetik uslubda ifodalangan:

*Bu dunyoda kim kechgay aroda ishq bo’lmasa,
Ujmoh qapug’in kim ochgay, aroda ishq bo’lmasa.
Dunyoni tark qilubon, izz-u johni solubon,
Kim tirilgay o’lubon, aroda ishq bo’lmasa*

[Boqirg’oniy 2022, 412].

Sulaymon Boqirg’oniy fikricha, ilohiy ishq borliqning hayotbaxsh negizidir. Olamning mavjud bo’lish sababi ham, odamning dunyoda yashashi va oxiratda mukofot topishi ham ana shu ilohiy muhabbatda mujassamdir. Zero, Alloh bandasi uchun belgilagan ilohiy maqsad faqatgina zohiriy ibodat va amallar bilan emas, balki chin dildan Haqni sevish va unga oshuftalik bilan amalga oshadi.

Hikmatning ikkinchi bayti ushbu fikrni ikki qatlamda talqin etishga imkon beradi: Baytning shar’iy talqiniga ko’ra, “dunyoni tark qilubon” iborasi bandaning dunyodagi hayotini yakunlab, o’limga yuz tutishini bildiradi. “Tirilgay o’lubon” esa qiyomat kunidagi qayta tirilish holatiga ishora qiladi. Demakki, bu yondashuvda shoir “insonning o’lishi va qayta tirilishi ham ilohiy ishq tufayli ro’y beradi” degan fikrni ilgari suradi.

Tasavvufiy-nazariy talqinga ko’ra esa, bu bayt biologik o’lim emas, balki “ma’naviy o’lim”, ya’ni “*muto qablal-maut*” (“o’lmasdan oldin o’lish”) haqidadir. “Dunyoni tark qilubon” – nafsiy istaklardan, dunyo havasidan voz kechish, “izzu johni solubon” – shon-shuhrat, martaba, mansab kabi soxta qadriyatlarni rad etish, “kim tirilgay o’lubon” esa – ana shu nafsiy o’lim orqali ma’naviy jihatdan kamolga yetish, “ruhiy tirilish”ni bildiradi. Tasavvufda bu jarayon *fano* (yo’q bo’lish), undan so’ng esa *baqo* (Haqda barhayot bo’lish) maqomlari orqali izohlanadi.

Shoirning “aroda ishq bo’lmasa” (o’rtada ishq bo’lmasa) degan jumlasida esa ushbu har ikki darajadagi tirilishning ham asosi – Haqqa muhabbat va ilohiy oshuftalik ekani g’oyasini mustahkamlaydi. Bu yerda ishq faqat hissiy holat emas, balki *borliqning mohiyatini harakatga keltiruvchi asosiy kuch* sifatida talqin etiladi.

Sulaymon Boqirg’oniy hikmatlarida “dunyo” obrazining chuqur ramziy, tasavvufiy-estetik talqini keyingi davr adabiy tafakkuriga sezilarli ta’sir ko’rsatgan. Ayniqsa, ushbu an’ana XIV-XV asrlar adabiyotida yanada mustahkamlanib, “dunyo” obrazining falsafiy va axloqiy jihatdan boy talqinlari bilan davom etdi.

“Qisasi Rabg‘uziy”da olam tasviri va talqini

Mumtoz adabiyotimizning yirik vakillaridan biri bo‘lgan Nosiruddin Rabg‘uziy “Qisasi Rabg‘uziy” asarida Qur‘on qissalarini badiiy va didaktik ruhda bayon etar ekan, bu hikoyatlar orqali o‘quvchini diniy-ma‘rifiy haqiqatlarga yetaklash bilan birga, dunyo hayotining mohiyati haqida chuqur ramziy tasvirlar ham beradi. Xususan, Nuh (a.s.) qissasiga bag‘ishlangan bobda keltirilgan quyidagi lavha e‘tiborga molik: *“Xabarda kelur, bir kun Jabroil alayhissalom keldi. Nuh umri oxir bo‘lmishda aydi: Ey Nuh, payg‘ambarlardin sening umrung uzunroq bo‘ldi. Dunyoni netak buldung? Nuh aydi: Dunyoni bir, iki qapug‘lug‘ saroytek buldum. Bir qapug‘din kirdim, bir qapug‘din chiqa tururman”* [Rabg‘uziy 2022, 51].

Mazkur lavhada Nuh (a.s.) tilidan ifodalangan dunyo tasavvuri ramziy-falsafiy mazmun bilan boyitilgan bo‘lib, unda dunyo ikki eshikli saroyga (karvonsaroyga) o‘xshatiladi. Ushbu tashbeh dunyo hayotining o‘tkinchi va muvaqqatligini ifodalaydi. Saroy – vaqtinchalik to‘xtalish joyi, eshik esa boshlanish va yakun timsolidir. “Ikki eshikli saroy” tasviri orqali inson hayotining bir eshikdan (tug‘ilish) kirib, ikkinchi eshikdan (o‘lim) chiqishdek qisqa va zohiriy darajada soddaligi, lekin botinan chuqur mazmunga ega bo‘lgan jarayon ekani anglatiladi. Nuh (a.s.) tilidan berilgan “ikki eshikli saroy” timsoli – vaqt va makon bilan cheklangan dunyo hayotining bandaga faqatgina Haqqa yetaklovchi yo‘l bosqichi ekani haqidagi fikrni ilgari suradi. Ushbu lavha orqali Rabg‘uziy nafaqat ilohiy qissani hikoya qiladi, balki uni axloqiy-ma‘naviy saboq bilan boyitadi: inson dunyoga bog‘lanib qolmasligi, uni abadiy manzil deb bilmassligi, balki uni oxiratga eltuvchi yo‘l sifatida anglab yashashi lozim.

Rasululloh (s.a.v.) vafotiga bag‘ishlangan qissaning so‘ngida berilgan she‘r ham Nosiruddin Rabg‘uziyning dunyo mohiyatiga oid badiiy-falsafiy qarashlarini yoritishda muhim manba hisoblanadi. Ushbu she‘rda muallif dunyo hayotining o‘tkinchiligi, uning hech kimga vafo qilmasligi, eng aziz va mukarram zot – Muhammad Mustafo (s.a.v.) ham bu foniy olamdan ko‘z yumgani orqali bevafo dunyo haqidagi g‘oyani shunday ifoda etadi:

*Ushbu dunyo ichra ko‘rdum bosh-oyoq to‘lug‘ cho‘g‘i,
Tinglayu turdum tugal yosh un sig‘it inchiq yig‘i.
Dunyo ermish bir o‘luksak qiymati yo‘q hech aning,
Asig‘i yo‘q, ul og‘u yang‘lig ondin ortuq sasig‘i.
Bu o‘luksak tegrasida ko‘rdum ersa ko‘p telim,*

*Itlar urushib talashurlar bir-birga bo‘lub yog‘i.
Eng so‘nggi itlar o‘lar qolur arig‘siz sasig‘ et,
Mundin ortuq ermas ermish ushbu dunyo totig‘i”*

[Rabg‘uziy 2022, 436].

She’rning ilk misrasi (“Ushbu dunyo ichra ko’rdum bosh-oyoq to‘lug‘ cho‘g‘i”)da dunyoning poetik manzarasi chiziladi: dunyo to‘liq “cho‘g‘i”ga, ya’ni g‘amgin nidolar, nola-yu afg‘onlar va shovqin-suron bilan to‘la. Keyingi misra (“Tinglayu turdum tugal yosh, un, sig‘it, inchiq yig‘i”) bu holatni yanada kuchaytiradi. Unda shoir lirik qahramon sifatida dunyo manzarasini tomoshabin kabi kuzatadi, tinglaydi va ko‘radi: u yerda faqat baqiriq, sig‘it (fig‘on) va iztirobli yig‘i ovozlari yangraydi. Bu iztirobiy akustik manzara dunyo hayotining nafaqat Rasululloh (s.a.v) vafot etgandagi holati, balki umuman, botiniy haqiqatini ham ko‘rsatadi.

Ikkinchi baytda dunyo yanada keskin va nafrat uyg‘otuvchi obrazda – o‘lgan jasad (o‘luksak) sifatida talqin qilinadi. Bunda mashhur hadisga ishora qilinarkan, u orqali dunyoning haqiqatda hech bir qadri yo‘qligi, unga bog‘lanish befoyda va ma’nosiz ekani uqtiriladi. Ayniqsa, “ul og‘u yanglig‘, ondin ortuq sasig‘i” degan ifoda bilan bu jasad nafaqat befoyda, balki zararli va zaharli ekani ta’kidlanadi. Ramziy ma’noda bu obraz dunyoning nafsoniy vasvasalarga to‘la, lekin oxir-oqibatda xorlik va halokat bilan yakunlanishini anglatadi.

She’rning uchinchi baytida ham “Dunyo – o‘limtikdir” hadisiga muvofiq manzara tasvirlangan bo‘lib, unda o‘lgan jasad atrofiga yig‘ilgan itlar obrazi orqali dunyoga oshufta odamlar tanqid qilinadi. Ushbu ramziy ifoda orqali shoirning ko‘zda tutgan asosiy tanqidi shundaki, insonlar o‘z orzu-havaslarini uchun aslida o‘zlariga zarari ko‘proq bo‘lgan narsalar uchun kurashadilar.

So‘nggi bayt bu tanqidni yakunlovchi keskin falsafiy xulosadir. Unda oxir-oqibat mazkur “o‘lik jasad”ni yegan itlar ham o‘lishi ta’kidlanarkan, bu orqali dunyoga eng ashaddiy oshufta kimsaning ham fojiaiy oqibatdan qutulolmasligi uqtiriladi. Oxirida hammadan qolgan “arig‘siz sasig‘ et”, ya’ni foydasiz, buzilgan go’sht obrazi dunyoviy ne’matlarning ramziy ifodasidir. Bu orqali shoir dunyo hayotining naqadar xorlik bilan yakunlanishini bildirarkan, dunyoning butun “totig‘i” – ya’ni ma’nosi, lazzati, haqiqatda, aynan mana shunday xorlikdan iboratdir, degan xulosaga keladi.

Ushbu she’r Nosiruddin Rabg‘uziyning dunyo haqidagi badiiy-falsafiy konsepsiyasini ifodalash bilan birga tasavvufiy-estetik tafakkur doirasida yuzaga kelgan dunyo obrazining ramziy

talqiniga yuksak misol hamdir. Unda “cho’g’i” (baqiriq), “o’luksak”, “og’u”, “it”, “sassiq et” kabi obrazlar orqali dunyoning tubanligi, shafqatsizligi, o’tkinchiligi, bevafoqligi ifodalanib, o’quvchini bu xatarli manzildan Haq yo’liga yuz burishga, ma’naviy uyg’onishga undovchi ichki da’vat mujassamdir.

Xulosa

Umuman olganda, XIV – XV asrlar turkiy adabiy muhitida “dunyo” obrazi tasavvufiy-falsafiy tafakkurning asosiy g’oyaviy markazlaridan biri sifatida shakllanib, o’zining ramziy-estetik qamrovini sezilarli darajada kengaytiradi. Bu davr adabiyotida “dunyo” tushunchasi oddiy hayotiy makon yoki moddiy mavjudlik belgisi emas, balki inson ruhiyati, nafs va ilohiy haqiqat o’rtasidagi ziddiyatlarni ifodalovchi murakkab timsol darajasiga ko’tariladi. Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg’oniy va Nosiruddin Rabg’uziy ijodida bu obraz turlicha shakllarda namoyon bo’lsa-da, ularni birlashtirib turuvchi umumiy mohiyat – dunyoning o’tkinchiligi, beqarorligi va insonni Haqdan chalg’ituvchi illatlar manbai sifatidagi talqindir.

Ahmad Yassaviy hikmatlarida “dunyo” inson qalbidagi ilohiy nurni berkituvchi parda, nafs va havoyi istaklar makoni sifatida tasvirlanadi. Shoir o’quvchini nafs bilan kurashga, dunyo vasvasalaridan poklanib, Haqqa yaqinlashishga da’vat etadi. Sulaymon Boqirg’oniy esa Yassaviy asos solgan irfoniy an’analarni davom ettirib, ularni yangi bosqichda badiiy va didaktik jihatdan boyitgan ijodkor sifatida namoyon bo’ladi. Uning hikmatlarida Yassaviyda mavjud keskin tanqidiy ohang xalqona didaktik ruh bilan uyg’unlashib, dunyo mavzusi ta’sirchan, ibratli va xalq ruhiyatiga yaqin tarzda ifoda topadi. Nosiruddin Rabg’uziy esa tasavvufiy tafakkur bilan mushtarak holda, dunyoni ma’rifiy-didaktik nuqtayi nazardan ko’rsatadi: uning “Qisasi Rabg’uziy”sida dunyo inson uchun vaqtinchalik sinov maydoni, oxiratga olib boruvchi yo’lning zarur bo’lagi sifatida talqin etiladi. Shu orqali u tasavvufiy g’oyani diniy-ma’rifiy tafakkur bilan uyg’unlashtiradi.

Ushbu uch mutafakkir ijodida “dunyo” obrazi turli badiiy shakllarda – ko’prik, karvonsaroy, zindon, do’kon, o’limtik, bevafo ayol kabi ramzlar orqali ifodalanib, insonning ruhiy-axloqiy o’zgarishi va ma’naviy yuksalish yo’lini ko’rsatadi. Ramzlarning bunday tizimi tasavvufiy estetikada dunyoni inkor etish emas, balki uni ruhiy kamolot sari yetaklovchi sinov maydoni sifatida talqin etish g’oyasini ifodalaydi. Shu bois XIV–XV asrlar turkiy she’riyatida

“dunyo” konsepsiyasi shunchaki falsafiy mavzu emas, balki butun bir ma’naviy dunyoqarash tizimining ifodasiga aylanadi. Bu an’ana keyingi davr adabiyotida ham davom etib, “dunyo” ramzining ontologik va estetik qamrovini yanada chuqurlashtiradi. Natijada, “dunyo” obrazi tasavvufiy-falsafiy tafakkurning badiiy in’ikosida inson va borliq, ruh va materiya, vaqt va abadiyat o’rtasidagi murakkab munosabatlarni ifodalovchi markaziy ramzga aylanadi.

Adabiyotlar

- Ал-Бухорий. 2008. *Саҳиҳи Бухорий: Ал-жомиъ ас-саҳиҳ* (Ишонарли тўплам). 1-, 2-китоблар. Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси.
- Ат-Термизий. 2006. *Биз англаган ва англамаган ҳадислар*. Тошкент: Мовароуннаҳр.
- Алишер Навоий. 2016. *Қомусий луғат*. 1-ва 2-жилдлар. Тошкент: Sharq.
- Boqirg’oni, Sulaymon. 2022. *Hikmatlar*. Turkiy adabiyot durdonalari. 4-jild. Toshkent: O’zbekiston.
- Rabg’uziy, Nosiruddin Burhonuddin. 2022. *Qisasi Rabg’uziy*. Turkiy adabiyot durdonalari. 5-jild. Toshkent: O’zbekiston.
- Хо’jayeva, Sh. 2024. *Alisher Navoiyning “Nazm ul-javohir” asari poetikasi*. Farg’ona: Classik.
- Yassaviy, Hoja Ahmad. 2022. *Devoni hikmat*. Turkiy adabiyot durdonalari. 4-jild. Toshkent: O’zbekiston.
- Баранов, Х. К. 1985. *Арабско-русский словарь* (около 42000 слов). Москва: Русский язык.
- Бертельс, Е. Э. 1965. *Суфизм и суфийская литература*. Москва: Наука.
- Кароматов, Ҳ. 1993. *Ўзбек адабиётида Қуръон мавзулари (адабий-тарихий таҳлил)*. Фил.ф.д. ... дисс. Тошкент.
- Комилов, Н. 2009. *Тасаввуф*. Тошкент: Мовароуннаҳр – Ўзбекистон.
- Навоий асарлари луғати*. 1972. Алишер Навоий асарларининг ўн беш томлигига илова. Тошкент: Ғафур Ғулум номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти.
- Хасанов, Н.Д. 2017. *Яссавийликка доир манбалар ва “Девони ҳикмат”*. Фил.ф.д. (Dcs) ... дисс. автореферати. Тошкент.
- Қарний, Доктор Оиз. 2022. *Ҳақиқий саодат*. Тошкент: Матбаачи.
- Ғаззолий, Имом. 2017. *Қирқ қудсий ҳадис*. Араб тилидан Рашид Зоҳид таржимаси. Тошкент: Sano-standart.

The Concept of “world” in the works of Turkic Authors and its Enlightenment Interpretation

Shoirakhon Khujaeva¹

Abstract

This article examines the essence and conceptual significance of the notion of the “*dunyo*” (world) within Sufi and moral-didactic thought on the basis of the works of Ahmad Yassavi, Sulaymon Baqirgani and Nasir al-Din Rabghuzi. It is demonstrated that in the writings of these authors, the image of the world is interpreted not merely as an object of moral criticism or superficial negation, but as a sphere of spiritual trial guiding the human soul toward self-purification and divine truth. A comparative analysis is conducted of the religious-ethical tone in Yassavi’s *Hikmats* (aphorisms), the folk-didactic orientation of Baqirgani’s works and the educational-philosophical approach found in Rabghuzi’s narratives. On this basis, both shared conceptual foundations and distinctive stylistic features in the interpretation of the world are identified. The findings indicate that in medieval Turkic Sufi literature, the symbolic image of the world developed in close connection with artistic, philosophical, and aesthetic dimensions, reflecting the unity of moral and spiritual perception.

Key words: *Sufism, irfon, hikmat, image of the world, symbol, spiritual perfection, didactics, aesthetic interpretation, enlightenment, artistic thinking.*

References

- Al-Buxoriy. 2008. *Sahihi Buxoriy: Al-jomi' as-sahih* (Ishonarli to'plam). 1-, 2-kitoblar. Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.
- At-Termiziy. 2006. *Biz anglagan va anglamagan hadislar*. Toshkent: Movarounnahr.
- Alisher Navoiy. 2016. *Qomusiy lug'at*. 1-va 2-jildlar. Toshkent: Sharq.
- Boqirg'oniy, Sulaymon. 2022. *Hikmatlar*. Turkiy adabiyot durdonalari. 4-jild. Toshkent: O'zbekiston.
- Rabg'uziy, Nosiruddin Burhonuddin. 2022. *Qisasi Rabg'uziy*. Turkiy

¹ *Shoirakhon B. Khujaeva* – Doctor of Philosophy in Philological Sciences (PhD), Doctoral Researcher, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

E-mail: shoiraxon24@gmail.com

ORCID ID: 0009-0007-6607-276X

For citation: Khujaeva, Sh. 2025. “The concept of “world” in the works of turkic authors and its enlightenment interpretation”. *Uzbekistan: Language and Culture* 3: 95 – 107.

- adabiyot durdonalari. 5-jild. Toshkent: O'zbekiston.
- Xo'jayeva, Sh. 2024. *Alisher Navoiyning "Nazm ul-javohir" asari poetikasi*. Farg'ona: Classik.
- Yassaviy, Xoja Ahmad. 2022. *Devoni hikmat*. Turkiy adabiyot durdonalari. 4-jild. Toshkent: O'zbekiston.
- Baranov, X. K. 1985. *Arabsko-russkiy slovar* (okolo 42000 slov). Moskva: Russkiy yazыk.
- Bertels, Ye.E. 1965. *Sufizm i sufiyskaya literatura*. Moskva: Nauka.
- Karomatov, H. 1993. *O'zbek adabiyotida Qur'on mavzulari (adabiy-tarixiy tahlil)*. Fil.f.d. ... disc. Toshkent.
- Komilov, N. 2009. *Tasavvuf*. Toshkent: Movarounnahr – O'zbekiston.
- Navoiy asarlari lug'ati*. 1972. Alisher Navoiy asarlarining o'n besh tomligiga ilova. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.
- Xasanov, N.D. 2017. *Yassaviylikka doir manbalar va "Devoni hikmat"*. Fil.f.d. (Dcs) ... diss. avtoreferati. Toshkent.
- Qarniy, Doktor Oiz. 2022. *Haqiqiy saodat*. Toshkent: Matbaachi.
- G'azzoliy, Imom. 2017. *Qirq qudsiy hadis*. Arab tilidan Rashid Zohid tarjimasini. Toshkent: Sano-standart.